

**QADIMGI RIMDAGI HUQUQIY TIZIM, SHARTNOMAVIY
MUNOSABATLAR**

Baxtiyorova Farangiz Ulug‘bek qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

farangizbaxtiyorov@gmail.com

Annotatsiya: “Rim huquqi barcha zamonaviy fuqarolik fanining asosini tashkil etadi va shu asosda fuqarolik huquqining umumiy nazariyasi asosini tashkil qiladi.” Shubhasiz, bu rimliklar o‘z sivilizatsiyasining rivojlanishi davomida erishgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning soddaligi bilan bog‘liq. Qadimgi Rimda shartnomaviy munosabatlarni tartibga soluvchi manbalar bo‘lib, ular hozirgi davr munosabatlariga o‘xshab ketadi. Ushbu maqolada Qadimgi Rimdagi ijtimoiy hayot va huquqiy tizim va shartnomaviy manbalari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Plebeylar, kliyentlar, patritsiylar, Roman- German, anglo-sakson, Gregorian kodeksi, Germogenian kodeksi, Gay Instituti, stipulyatsiya.

LEGAL SYSTEM, CONTRACTUAL RELATIONS IN ANCIENT ROME

Bakhtiyorova Farangiz Ulug‘bek kizi

Student of Tashkent State University of Law

farangizbaxtiyorov@gmail.com

Abstract. "Roman law forms the basis of all modern civil science, and on this basis forms the basis of the general theory of civil law." Undoubtedly, this is related to the simplicity of the regulation of social relations achieved by the Romans during the development of their civilization. In ancient Rome, there are sources of regulation of contractual relations, which are similar to modern relations. This article deals with social life and the legal system and contractual sources in Ancient Rome.

Keywords: Plebeians, clients, patricians, Roman-Germanic, Anglo-Saxon, Gregorian codex, Hermogenian codex, Gay Institute, stipulation.

Qadimgi Rim davlati – o‘z davrining qudratli va buyuk davlati hisoblanadi. Qadimgi Rim davlatida aholining haq-huquqlari rim huquqi manbalari orqali tartibga solib turilgan. Davlatning vujudga kelishi tarixiga to‘xtaladigan bo‘lsak, miloddan avvalgi I asr va milodning II asrida Rim quldorlari butun Shimoliy Afrikani, Yevropaning ancha qismini va Old Osiyo mamlakatlarini o‘z hukmronli ostiga olgan va qariyb 500 yil hukm surgan g‘oyat katta davlatga aylanadi. Rim respublikasi Italiyada tarkib topgan kuchli davlatlardan biri bo‘lgan.

Haydarali Muhammedovning ta’kidlashicha, Qadimgi Rim davlati tarixini uch davrga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq.

Ü Ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi va quldorlik davlatining tashkil topishi.

Ü Rim Respublikasi davri. (miloddan avvalgi 509-27-yillarni o‘z ichiga oladi.

Ü Monarxiya davri. (Miloddan avvalgi 27-yildan milodning 467-yiligacha)^[1]

Eng so‘nggida Rim quldorlik davlati 476-yili o‘z nihoyasiga yetadi. Qadimgi Rim aholisi chorvachilik va shuningdek, dehqonchilik bilan ham shug‘ullanganlar. Aynan shu sohalarning rivojlanishi Qadimgi Rimda xususiy mulk va tabaqalanishni keltirib chiqargan. Qulay sharoit tug‘ilganda davlatga ko‘chib kelganlar plebeylar deb atalib, ozodlikka chiqqan qullar – kliyentlar va mahalliy aholi hisoblangan patritsiylar orasida ko‘plab nizoli holatlar kelib chiqib turar edi. “Rim jamoasi tepasida senat tomonidan saylab qo‘yilgan reks (ryex – podsho) turgan”^[2]. . Demak shuni ta’dilab o‘tis mumkinki, aholi o‘zlarida mavjud muammolarni yig‘inlarda bermalol muhokama qila olgan va bu ham huquqlar ta’milanadigan davlatlarning belgisi hisoblanadi.

Quyidagi qiyosiy jadvalda Rimda Respublika boshqaruvi davrida va Imperiya (monarxiya) boshqaruvi davridagi ijtimoiy tuzumning farqli jihatlari yoritladi.

Rim Respublikasi	Rim monarxiyasi
Ü Asosiy ijtimoiy bo‘linishi – erkin kishi va qullar;	Ü Diktotura o‘rnatilib tabaqalanish avj olib ketdi. Yuqori tabaqa va qullarga bo‘linish avj oldi.
Ü Aristoklatlar ustun jamiyat.	Ü Gay Grakx aristokratlarning siyosiy nufuzini zaiflashtiruvchi qonunlar chiqargan.
Ü Qullikning partiaxal xarakteri natijasida yirik quldor va mayda ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida kurash respublika tarixining mazmunini tashkil qilgan;	Ü Haqiqiy ashaddiy qullik jarayoni boshlanib ketadi.

<p>Ü Peteliy qonuni – qarz uchun qulga aylantirishni bekor qiladi.</p>	<p>Ü Imperiyaga o‘tish bosqichida Tiberiy Grakx Agrar qonun chiqarib, unga ko‘ra kambag‘al va yersizlarga yer uchastkalari ajratiladi.</p>
<p>Ü Kolonatning [3] miqdori kam edi, chunki pekuliylar [4] ko‘p edi.</p>	<p>Ü Kolonatlarning ko‘payib ketishi.</p>

Demak, Rim respublikasi boshqaruvi davri va monarxiya boshqaruvi davri mutlaq bir-biridan farq qiladi. Respublika boshqaruvi shaklida bo‘la turib qullikning mavjud bo‘lishi va monarxiya boshqaruvi davriga kelib uning yanada avj olishi inson huquqlarini yetarlicha ta’minlanmagan degan xulosaga olib kelishi mumkin, Ammo, qator agrar va xo‘jalik islohotlari ishlab chiqarishni rivojlanishiga turtki va davlat rivojlanishi uchun imkoniyat bo‘ladi.

(Muhokama va tahlillar)

A. Chroustning ta’kidlashicha, G‘arbiy davlat aholisi uzoq tarix davomida ikki huquqiy tizimning o‘sib borishining guvohi bo‘lganlar. Bular, Roman- German va anglo-sakson tizimlaridir. Roman – German huquq tizimining rivojlanib taraqqiy topib borishiga Rim huquqshunoslarining hissasi nihoyatda katta bo‘lgan. Shu sababli hatto qadimgi Rim davlatining aholisiga huquq fanlari o‘qitilgan.^[5] Rim davlatining huquqiy hayotini tartibga solishda, xilma-xil munosabatlarni qamrab oluvchi rim huquqi vujudga keladi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, xususiy mulkchilikning rivojlanib borishi va turli tabaqaviy guruhlarning shakllanishi natijasida, ushbu masalalarga oid huquqiy

muammolar ham kelib chiqishi tabiiy. Shu vaziyatda huquqiy tizimning tamal toshi qo‘yilishi eng ahamiyatli hodisalardan biri bo‘ladi. Dastlab, Rimda fuqarolik munosabatlarini tartibga soluvchi normalar paydo bo‘lgan. Rostan ham, vujudga kelgan barcha harakatlar, hatto jinoyat elementlari bilan bog‘liq harakatlar ham dastlab fuqarolik huquqiy normalari bilan tartibga solinib, fuqarolik huquqining rivojlanishi uchun asos va zamin yaratilgan. “Quldarlik tizimi asosida Rim quldarlik jamiyatida buyuk Rim fuqarolik huquqi vujudga kelgan bo‘lib, u ikki qismga, ya’ni ommaviy va xususiy huquqlarga bo‘lingan. Qadimgi Rimning mashhur tarixchi Tit Liviy (1 asr) Rimdagি mavjud odat normalaridan kelib chiqqan yozma “ XII jadval” qonuniga ommaviy va xususiy huquqning ham manbasidir, deb haqiqiy ta’rif bergen edi”^[6].

XII jadval qonunlarida odat huquq mavjud bo‘lib, plebeylarning patritsiyalga qarshi noroziliklari natijasi sifatida qabul qilingan va ko‘plab sohalarga oid masalalarni hal qilgan. Birinchi Rim yozma qonuniy manbalaridan biri sifatida XII Jadval qonunlariga, ayniqsa, undagi oilaviy munosabatlarga, ya’ni oila va nikoh hamda ota hukmronligi institutiga alohida e’tiborni qaratgan.

Imperator hokimiyati hujjatlari ham mavjud bo‘lib, ularga ediktlar, reskriptlar, dekretlar, mandatlar kirgan. Shuningdek, podklassik huquq manbalari sifatida, Gregorian kodeksi, Germogenian kodeksi, Yustinianning yagona qonunlar to‘plamini misol keltirish mumkin. Demak, Rimda qadimgi davr sharoiti uchun yetarli darajada huquq manbalari jamlanmasi bor edi. O’sha davr huquqiy hayotiga mos qonun normalari mavjud bo‘lgan va shuningdek odat huquqi ham anchayin rivoj topgan. Rim huquqi va uning manbalari hozirgi zamon ayrim davlatlar huquqiy tizimining asosi bo‘lgan yo‘nalishlarni paydo bo‘lishiga turki bo‘lganligini kuzatish mumkin. Ishchi guruhi va ish beruvchi shaxs o‘rtasida tuzilgan pudrat shartnomasi va uning buzilish holatlari bilan

bog‘liq muammoli vaziyat kelib chiqqanda, masalan ish beruvchi ishchilar bilan ish tugagandan so‘ng shartnomaga ko‘ra, belgilangan pulni berishdan bosh tortgan holat kelib chiqish mumkin. Ushbu holatda Rimning shartnomaviy holatlari haqida ma’lumot berish orqali yechim topish mumkin. Shartnoma bu – ikki yoki undan ortiq tomonlar orasida yuzaga kelgan manfaatlar yuzasidan imzolanadigan rasmiy hujjatdir. Shartnomalar xususida XII jadval qonunlarida “Shartnomani bajarish shart, va’da berdingmi bajar” degan qoidalar takrorlangan. Shartnomadagi o’z majburiyatini bajarmagan shaxs ikki baravar jarima to‘lashi kerak bo‘lgan. X.Muhammedovning keltirishicha, Rimda Gay Institutsiyalarida shartnomalarning quyidagi 4 turi mavjudligini ta’kidlab o‘tadi.

- Verbal shartnomalar (so‘zdagi shartnomalar) - qasamlardan o‘zining dastlabki asosiga ega bo‘ladi.
- Literal shartnomalar (lotincha littera – harf degani) – maxsus yozma shakldagi shartnomalar.
- Real shartnomalar (lotincha res-ashyo) – tomonlarning shartlar bo‘yicha kelishuvidan tashqari, shartnoma predmetini tashkil etgan ashyoni albatta o‘tkazishini talab qiladi.
- Konsussual shartnomalar tarkibidagi, Ishchi kuchi ijerasi shartnomasi
 - (location-conductio oper arum) – ma’lum muddatga va belgilangan haq evaziga tuzilgan, lekin bu shartnoma qullar asosiy ishchi kuchini tashkil etgan quidorlik tuzimi sharoitlarida unchalik rivojlanmagan.^[7]

Ishchi ijerasi shartnomasi shakllaridan biri Pudrat shartnomasidir. Unga ko‘ra bir taraf, ya’ni pudratchi ikkinchi taraf esa buyurtmachi bo‘ladi. Buyurtmachining topshirig‘iga binoan ma’lum bir ishni bajarishi va uni buyurtmachiga belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa ishni qabul qilib olib unga haq to‘lash majburiyatini oladi.

Ishni bajaruvchi tomon o‘z vazifasini bajargan bo’lsa-yu, ammo pudrat shartnomasida kelishilgan hududda emas, buyurtmachi esa ularga nisbatan soxtakorlik qilib aldagan va ishni qabul qilib olishi bilan ish oluvchilarga kelishilgan mablag‘ni berishi kerak bo’lar edi. Lekin shaxslar shartnomaning rasmiylashtirilmaganligidan foydalanib o‘zining manfaatlariga pul undirib olish niyatida harakat qilsa, mana shu qismda savol paydo bo‘ladi shartnomada qanday holatda rasmiylashtirilgan deb topiladi? Demak, Rim qonunlariga ko‘ra, ikki tomonning roziligi bilan, majburiyatlar predmeti bo‘lgan taqdirda va ular yozma ravishda imzolaydi yoki “stipulyatsiya” ya’ni og‘zaki shaklda tuzilishi kerak. “Rimda majburiyatlar bajarilishi davogarning da’vo bildirishi orqali himoyalangan, shu bois ham agar majburiyat shunga muvofiq da’vo shakli bilan yuridik ta’minlangan bo‘lsagina u qonuniy kuchga ega bo‘ladi”. Lekin ikki mustasno holat mavjud bo‘lib bular:

- norasmiy majburiyatni shartnomada orqali rasmiylashtirish;
- **rasmiy holatdan chekinib, qarzini to‘lash yoki boshqa majburiyatlarni shartnomada ko‘rsatilmagan usulda ijro etaverish**(agarda ikki tomon ham bunga rozi bo‘lsa). Bunday harakatlar natijasida shartnomada talablari bajarilgan deb hisoblanadi va u sivil holatga o‘tgan bo‘ladi”. Ishchilar rasmiy holatdan chekinib majburiyatlarni bajargan ikki tomon roziligi bilan.

(Natija va xulosalar)

Demak, ishchilar o‘z majburiyatlari ya’ni uy qurib berishni qonuniy ravishda bajargan hisoblanadi. Shu sababli ikkinchi tomon ya’ni ish beruvchi ham belgilangan mablag‘ni to‘lashi shart. Shunga o‘xhash shartnomaga oid masalalarni *Gay institutsiyalari* shaxslar, ashyolar, majburiyatlar, da’volar haqidagi to‘rtga bo‘lingan kitoblaridan topish mumkin. [8]

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tishim mumkinki, Rim huquq o‘z davri uchun yetarlicha mukammal darajada belgilangan. Shartnomaviy munosabatlarda oddiy aldov holatlar ham ko‘zdan qochirilmagan.

Adabiyotlar / References

- [1] Muhammedov H. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi (Qadimgi dunyo davlati va huquqi tarixi): Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik/ Ma’sul muharrir: A.X. Saidov. Qism 1. – T.: Toshkent davlat yuridik instituti nashriyoti, 2005.- 210-b.
- [2] Davlat va huquq tarixi: IIV oliv ta’lim muassasalari uchun darslik// H.Odilqoriyev, N.Azizov, X. Madirimov. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – 75 b.
- [3] Kolonat – yerni ijara oluvchilar, iqtisodiy qaram bo’lib qolib yerga biriktirib qo’yilgan.
- [4] Pekuliy – xo‘jayinning o’z qullariga xo’jalik yuritish uchun topshirib qo‘ygan mulki.
- [5] Chroust, A.-H. LEGAL EDUCATION IN ANCIENT ROME. *Journal of Legal Education*, 1995. <http://www.jstor.org/stable/42890901>
- [6] Isxakov S. Rim huquqi: IIV oliv ta’lim muassasalari uchun darslik/ S.Isxakov, V. Topildiyev, A. Raxmonov, - T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. 224-b.
- [7] Muhammedov H. Xorijiy mamlakatlar davlati va huquqi tarixi (Qadimgi dunyo davlati va huquqi tarixi): Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik/ Ma’sul muharrir: A.X. Saidov. Qism 1. – T.: Toshkent davlat yuridik instituti nashriyoti, 2005.- 277-b.
- [8] Институции Гая. <https://study.shmat.by/institutsii-gaya-tekst/>
<https://study.shmat.by/institutsii-gaya-tekst/>